

**QORAQALPOG‘ISTON  
RESPUBLIKASI  
AMUDARYO TUMANI HOKIMI  
Q A R O R I**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
ÁMIWDÁRYA RAYONÍ HÁKIMI  
S H E S H I M I**

2021 - yil 12 - oktabr

45-13-181-Q/21

Amudaryo tumani hokimligi

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil  
8-oktabr kungi 107-13-0-Q/21-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-sentabrdagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuniga asosan 2021-yilda umumta‘lim va o‘rta-maxsus ta‘lim muassaslarini bitiruvchi 17-18 yoshdagi fuqarolarni tuman chaqiruv maskanida o‘z vaqtida qayd qilish hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 8-oktabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2021-2022 o‘quv yilida umumta‘lim maktablari va professional ta‘lim muassasalarini bitiruvchi, 17-18 yoshdagi fuqarolarni chaqiruv maskanlarida qayd qilish ishlarini tashkillashtirish to‘g‘risida”gi 107-13-0-Q/21-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 8-oktabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2021-2022 o‘quv yilida umumta‘lim maktablari va professional ta‘lim muassasalarini bitiruvchi, 17-18 yoshdagi fuqarolarni chaqiruv maskanlarida qayd qilish ishlarini tashkillashtirish to‘g‘risida”gi 107-13-0-Q/21-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining mazkur qarori bilan:

a) 2021-2022 o‘quv yilida umumta‘lim va professional ta‘lim muassasalarini bitiruvchi 17-18 yoshdagi fuqarolarni Nukus shahar va tumanlar chaqiruv maskanlarida qayd qilish ishlarini sifatli o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanganligi;

b) joriy yilning 11 oktabr kuniga qadar o‘smirlarni chaqiruv maskanlarida qayd qilish bo‘yicha Nukus shahar va tumanlar komissiyasi tarkibini hokimliklarning tegishli qarori bilan tasdiqlash vazifasi topshirilganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul

qilinsin.

3. Umumta`lim va professional ta`lim muassasalarini bitiruvchi, 17-18 yoshdagi fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd qilish bo`yicha tuman komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimi o`rinbosari (M.Shermetov) Mudofaa ishlari bo`limi (B.Atakov), Mahalla va oilani qo`llab-quvvatlash bo`limi (A.Yuldashev) hamda jamoat tashkilotlari bilan birgalikda:

Joriy yilning oktabr-noyabr oylarida tuman Mudofaa ishlari bo`limi tomonidan chaqiruv uchastkasida umumta`lim va professional ta`lim muassasalaridagi 17-18 yoshdagi fuqarolarni qayd etish ishlarining sifatli o`tkazilishini ta`minlasin;

Joriy yil oktabr oyidan boshlab Mudofaa ishlari bo`limi mas`ul xodimlari tomonidan umumta`lim va professional ta`lim muassasalarini bitiruvchi 17-18 yoshdagi fuqarolar bilan bevosita muloqot qilish orqali ularning oilaviy sharoiti, dunyoqarashlari, salomatlik va bilim, intellektual qobiliyati, ruhiy salohiyati darajasini aniqlash hamda ularni O`zbekistan Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmatga tayyorlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishsin;

har bir fuqaroni salomatlik darajasi, bilim doirasi, oilaviy sharoiti va ruhiy beqarorlik darajasi bo`yicha o`rganib, belgilangan tartibda oliy harbiy ta`lim muassasalariga va 2021-yil uchun rejimli komandalarga hamda chaqiriluvchilarni harbiy texnika mutaxassisliklari bo`yicha tayyorlash markaziga o`qish uchun tayinlashsin;

tuman Mudofaa ishlari bo`limi ixtiyoriga chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash va chaqiruv maskanlarida qayd etishni yuqori darajada tashkil etish uchun yetarli miqdorda texnik xodimlar va avtotransport vositalarini ajratish choralarini ko`rsin.

5. Mulkchilik shaklidan qat`iy nazar tumanda joylashgan barcha korxonalar, tashkilotlar, ta`lim muassasalari, mahalla fuqarolar yig`inlari belgilangan muddatlarda qayd etilishi lozim bo`lgan umumta`lim maktablari va professional ta`lim muassasalarini bitiruvchi, 17-18 yoshdagi fuqarolarning ro`yxatini o`z vaqtida tuman Mudofaa ishlari bo`limiga taqdim etsin hamda chaqiriqqacha yoshlarning chaqiruv maskaniga kelishlarini ta`minlasin.

6. Tuman Ichki ishlar bo`limi (U.Xudoyberganov):

Tuman Mudofaa ishlari bo`yicha bo`limining taqdimnomasiga asosan chaqiruv maskanlariga o`z vaqtida qayd qilish uchun kelmagan o`smirlarni olib kelishga amaliy yordam qilsin;

Jinoiy javobgarlikka tortilgan va tergov ishlari olib borilayotgan, diniy oqimlar hisobida turgan o`smirlarning ro`yxatini tuman Mudofaa ishlari bo`limiga belgilangan muddatda taqdim etsin;

Fuqarolarni chaqiruv maskanlarida qayd etish davrida tuman chaqiruv maskanida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta`minlash choralarini ko`rsin.

7. Fuqarolarni chaqiruv maskanida qayd etish bilan bog`liq barcha tadbirlar karantin qoidalariga qat`iy rioya qilgan holda o`tkazilishi belgilab qo`yilsin.

8. Tuman televideniyesi (G`.Eshniyozov)ga o`smirlarni qayd qilish tadbirlarini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish tavsiya qilinsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari M.Shermetov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**S. YO`LDASHEV**

Амударё туман ҳокимининг  
2021 йил 12 октябрдаги  
45-13-181-Q/21-сон қарорига  
1-илова

**Umumta`lim va professional ta`lim muassasalarini bitiruvchi,  
17-18 yoshdagi fuqarolarni chaqiruv uchastkasida  
qayd qilish bo`yicha tuman komissiyasi**

**TARKIBI**

1.	B.Ataqov	-	Tuman Mudofaa ishlari bo`limi boshlig`i, komissiya raisi
<b>Komissiya a`zolari</b>			
2.	T.Matmuratova	-	Katta shifokor, terapevt
3.	I.Urazimbetov	-	Jarroh
4.	B.Tilavov	-	Nevropatolog
5.	G.Urazimbetova	-	Psixiatr
6.	G.Allabergenova	-	Okulist
7.	O.Allaberganov	-	Otolaringolog
8.	K.Masharipov	-	Dermatolog
9.	I.Axmedova	-	Stomatolog
10.	Z.Kamolova	-	Komissiya kotibasi

**Fuqarolarni tuman chaqiruv uchastkasiga qayd etish  
komissiyasining o`rindosh**

**TARKIBI**

1.	T.Boltaev	-	Tuman Mudofaa ishlari Chaqiruv bo`linmasi boshlig`i
<b>Komissiya a`zolari</b>			
2.	R.Nurmanova	-	Katta shifokor, terapevt
3.	I.Nurimbetova	-	Jarroh
4.	N.Do`simbetova	-	Nevropatolog
5.	N.Allabergenova	-	Psixiatr
6.	T.Do`sanov	-	Okulist
7.	X.YUldashev	-	Otolaringolog
8.	J.Xolimbetov	-	Dermatolog
9.	M.Axmedova	-	Stomatolog